

**MULKKA TAJOVUZ JINOYATLARI: SUD AMALIYOTI VA HUQUQIY
TAVSIF MASALALARI****Sadullayeva Farida Farxod qizi***Termiz Davlat Universiteti**Yuuridik Fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining mulkka qarshi jinoyatlar — o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilikni huquqiy tavsiflashga oid qarori asosida ushbu jinoyatlarning o'ziga xos belgilari, ularning sud amaliyotida qo'llanilishi, jinoyatning tugallanish vaqti, zo'rlik darajasi, noqonuniy kirish va qurol ishlatish holatlari tahlil qilingan. Mavzuga oid huquqiy mezonlar hamda jinoyatlarni farqlash mezonlari aniqlashtirib berilgan. Mazkur maqola sudyalari, huquqshunoslar va yuridik ta'lim muassasalari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Mulkka qarshi jinoyatlar, o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik, Oliy sud Plenumi, jinoyatni huquqiy tavsiflash, sud amaliyoti, zo'rlik, jinoyat tarkibi, jinoyatning tugallanishi, qurol, noqonuniy kirish.

**CRIMES OF PROPERTY ENCROACHMENT: QUESTIONS OF JUDICIAL
PRACTICE AND LEGAL DESCRIPTION**

Annotation: this article analyzes the specific symptoms of these crimes, their application in judicial practice, the time of completion of the crime, the degree of severity, the use of illegal entry and weapons based on the decision of the plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan on the legal description of crimes against property — theft, robbery and invasion. The legal criteria for the topic as well as the criteria for distinguishing between crimes are clarified. This article is of practical importance for judges, lawyers and institutions of legal education.

Keywords: crimes against Property, Theft, Robbery, invasion, High Court plenum, legal description of the crime, judicial practice, rape, criminal content, completion of the crime, weapons, illegal entry.

**ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПОСЯГАТЕЛЬСТВА НА ИМУЩЕСТВО: ВОПРОСЫ
СУДЕБНОЙ ПРАКТИКИ И ЮРИДИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА**

Аннотация: В данной статье на основании Постановления Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан О правовой характеристике преступлений против собственности — кражи, грабежа и разбоя-

проанализированы характерные признаки этих преступлений, их применение в судебной практике, время совершения преступления, степень тяжести, случаи незаконного проникновения и применения оружия. Уточняются правовые критерии, относящиеся к предмету, а также критерии дифференциации преступлений. Данная статья имеет практическое значение для судей, юристов и юридических учебных заведений.

Ключевые слова: преступления против собственности, кража, грабеж, вторжение, Пленум Верховного суда, юридическая характеристика преступления, прецедентное право, изнасилование, состав преступления, завершение преступления, оружие, незаконный доступ.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida belgilanishicha, mamlakat iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Mulk daxlsiz va davlat tomonidan himoyalangan bo'lib, unga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz qonunga xilof hisoblanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining so'nggi qarorida o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlariga huquqiy baho berish masalalari chuqur tahlil etilgan va sud amaliyotida qo'llanilishi bo'yicha aniqlik kiritilgan.

O'g'rilik — bu boshqa shaxsning mol-mulkini yashirin tarzda talon-toraj qilish bo'lib, Jinoyat kodeksining 169-moddasida nazarda tutilgan. Agar aybdor mol-mulkni yashirin tarzda olib ketgan bo'lsa, bu jinoyat o'g'rilik deb baholanadi. Qizig'i shundaki, jabrlanuvchi yoki boshqalar mulkning olib ketilayotganini ko'rgan bo'lsalarda, aybdorning bunday harakati yashirin deb qabul qilingan bo'lsa, u holda ham o'g'rilik deb tavsiflanadi.

Alohida e'tibor berilishi kerak bo'lgan holat — shaxsning mulkni egallayotganini tushunishga qodir bo'lmagan jabrlanuvchilarga nisbatan sodir etilgan talon-toraj holatlari (kichik yoshdagilar, aqliy zaiflar, mast holatdagilar va h.k.) ham yashirin harakat sifatida baholanadi.

Sud amaliyotida eng ko'p muhokamaga sabab bo'layotgan jihatlardan biri bu talonchilik va bosqinchilik o'rtasidagi farqni aniq belgilashdir. Jinoyat kodeksining 166-moddasi talonchilik, 164-moddasi esa bosqinchilik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Talonchilik — bu ochiqdan-ochiq mulkni tortib olish bo'lib, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish yoki shunday zo'rlik bilan qo'rqitish yo'li bilan sodir etiladi. Masalan, yengil tan jarohati yetkazish, jismoniy azob berish, erkinlikni vaqtincha cheklash kabi holatlar bular jumlasidandir.

Bosqinchilik esa hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatilgan yoki shunday zo'rlik bilan qo'rqitilgan holda amalga oshirilgan hujumdur. Bu holatda

jabrlanuvchining hayotiga jiddiy xavf tugʻdirilgan boʻlishi kerak: masalan, boʻgʻish, suvga botirish yoki boshga kuchli zarba berish kabilar.

Tovlamachilik ham oʻgʻrilik, talonchilik va bosqinchilik bilan uygʻun holatlarda sodir etilishi mumkin. Ammo Oliy sudning izohiga koʻra, tovlamachilikda mulkni olish niyati zoʻrluk ishlatish vaqtida emas, balki kelajakda boʻlishi nazarda tutiladi. Bunda qoʻrqitish amalga oshirilgan taqdirda, Jinoyat kodeksining tegishli boshqa moddasi ham qoʻllaniladi.

Har bir mulkka tajovuz jinoyati oʻzining tugallanish bosqichiga ega. Oʻgʻrilik va talonchilik jinoyati aybdor mulkni oʻz ixtiyoriga oʻtkazgan va undan foydalanish imkoniyatiga ega boʻlgan paytdan tugallangan hisoblanadi. Bosqinchilik esa bevosita zoʻrluk ishlatilgan hujum bilan boshlanadi va shu vaqtdan boshlab jinoyat sodir etilgan deb topiladi.

Qurol ishlatilishi jinoyatning ogʻirligini oshiradi. Jinoyat kodeksining 164-moddasi 2-qismida bosqinchilik qurol bilan sodir etilgan boʻlsa, ogʻirlashtiruvchi holat sifatida baholanadi. Biroq Oliy sudning izohiga koʻra, pnevmatik qurollar, start pistaletlari, signal raketnitsalar kabi vositalar qurol sifatida baholanmaydi. Shu sababli ularning ishlatilishi faqat aybdorning real niyatiga va jabrlanuvchiga yetgan zararga qarab huquqiy tavsiflanadi.

Plenum qarorida davomli jinoyatlar masalasi ham alohida koʻrib chiqilgan. Bir nechta epizodlarda sodir etilgan oʻgʻrilik yoki talonchilik umumiy summa asosida baholanishi mumkin. Biroq, agar har bir epizod oʻziga xos xususiyatga ega boʻlsa (masalan, birida oʻgʻrilik, boshqasida bosqinchilik boʻlsa), u holda har bir jinoyat alohida tavsiflanishi shart.

Uy-joy, omborxona yoki boshqa binolarga oʻgʻrilik, talonchilik yoki bosqinchilik qilish maqsadida noqonuniy kirish sodir etilgan boʻlsa, bu holat jinoyat tarkibiga taʼsir etadi. Noqonuniy kirish yashirin tarzda, aldov orqali, qalbaki hujjatlar yordamida yoki maxsus niqob ostida amalga oshirilishi mumkin. Muhimi, bu kirish jinoyat sodir etish niyatida boʻlishi kerak. Agar aybdor dastlab boshqa niyatda kirgan boʻlsa, keyinchalik mulkni talon-toroj qilishga qaror qilsa, bu jinoyatni ogʻirlashtirmaydi.

Xulosa qiladigan boʻlsak, sud amaliyotida oʻgʻrilik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini toʻgʻri tavsiflash jinoyatga huquqiy baho berish, adolatli jazoni tayinlash hamda jabrlanuvchining huquqlarini himoya qilishda muhim oʻrin tutadi. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ushbu qarori bu boradagi chalkashliklarni bartaraf etish, sudlar faoliyatida yagona yondashuvni taʼminlashga qaratilgan huquqiy asos sifatida katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. Oʻzgalar mulkini oʻgʻrilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisidagi Oliy sudi plenumining Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi “Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 3-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1998-yil 17-apreldagi “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi 11-son Plenum qarori.
5. O‘zbekiston respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>

